



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

B U Y R U G‘I

**Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparatida tovar, material, asbob-uskuna, ish va xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha komissiyaning yangilangan tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparatida tovar, material, asbob-uskuna, ish va xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha komissiyaning yangilangan tarkibini tasdiqlash maqsadida **buyuraman:**

1. Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparatida tovar, material, asbob-uskuna, ish va xizmatlarni (keyingi o‘rinlarda “tovar va xizmatlar” deb yuritiladi) xarid qilish bo‘yicha komissiya (keyingi o‘rinlarda – “Xarid komissiyasi” deb yuritiladi) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasiga zaruriyatdan kelib chiqqan holda tovar va xizmatlarni xarid qilish (takliflar to‘plash, xarid qilinadigan mahsulot va xizmatlar tavsifnomasini tayyorlash va boshqalar)ni tashkil etish jarayonlariga tegishli boshqarma va bo‘limlar xodimlarini jalb qilish huquqi berilsin.

3. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi markaziy apparatida tovar, material, asbob-uskuna, ish va xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha komissiyaning yangilangan tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 17-noyabrdagi 594-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari O. Pekos zimmasiga yuklansin.

Vazir



Sh. Shermatov

Raqamli texnologiyalar vazirligida tovar, material, asbob-uskuna,  
ish va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha komissiya

**TARKIBI**

1.	R. Karimjonov	-	Vazirning o'rinbosari, Xarid komissiyasi raisi
2.	J. Egamberdiyev	-	Vazir maslahatchisi, Xarid komissiyasi raisi o'rinbosari
<b>Xarid komissiyasi a'zolari</b>			
3.	lavozim bo'yicha	-	Ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i
4.	B. Shakarimov	-	Energiyani tejash va xo'jalik masalalari xizmati bosh mutaxassisi
5.	B. Smanov	-	Iqtisodiyot boshqarmasi boshlig'i
6.	I. Ishankulov	-	Buxgalteriya hisobi bo'limi boshlig'i
7.	D. Boltayev	-	Investitsiyalar, tashqi iqtisodiy aloqalar va jahon savdo tashkiloti masalalari bilan ishlash bo'limi
8.	lavozim bo'yicha	-	Xarid qilish bo'yicha tashabbus ko'rsatayotgan Vazirlikning tarkibiy bo'linmasi (boshqarma, bo'lim, hududiy boshqarma) boshlig'i, Xarid komissiyasi kotibi

**Izoh:** Xarid komissiyasi a'zosi boshqa ishga o'tganda yoki lavozimidan ozod etilgan taqdirda, uning o'rniga tayinlangan yoki uning vazifasini bajaruvchi xodim Xarid komissiyasi a'zosi hisoblanadi;

Xarid komissiyasi a'zolari kvorum bo'lganda (50+1) Xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi;

Xarid komissiyasi raisi hamda a'zolari bitta ovoz berish huquqiga ega, bunda, ovozlar soni teng bo'lib qolganda, Xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi;

Kvorum bo'lib, Xarid komissiyasi raisi hal qiluvchi ovozni bergan taqdirda ham ovozlar soni teng bo'lib qolganda, Xarid komissiyasi xarid o'tkazilmagan hisoblanadi va xarid qayta amalga oshiriladi;

Xarid komissiyasi a'zolari o'zlari ovoz bergan munosabatlar bo'yicha javobgar hisoblanadilar va Xarid komissiyasi a'zolaridan biri Xarid komissiyasining qaroridan norozi bo'lsa yoki qarshi ovoz bersa, o'zining yozma fikrini taqdim etishga haqli;

Xarid komissiyasi a'zolari xaridlar bo'yicha Vazirlikning istalgan xodimini mutaxassis sifatida Xarid komissiyasi yig'ilishiga jalb qilishga va uning fikrlarini eshitishga haqli hamda mutaxassis Xarid komissiyasi yig'ilishida albatta ishtirok etishi, o'z fikrini bayon qilishi lozim.

Xarid komissiyasi kotibi ovoz berish huquqiga ega emas va u Xarid komissiyasining barcha tashkiliy masalalari o'z vaqtida, lozim darajada hal etilishi hamda tashkil etilishini ta'minlaydi.